**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
____________________
2024 yil “____”__________

# DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60112100 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi |

**Chirchiq – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>DHNT 1210</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>2</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>6</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>6</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Davlat va huquq nazariyasi va tarixi</td><td>90</td><td>90</td><td>180</td></tr>
</table>

2.

**I. Fanning mazmuni.**

Fanni o‘qitishdan maqsad – davlat va huquqqa tegishli hodisa va jarayonlarning muhim, zaruriy va eng umumiy tomonlarini o‘rganish orqali jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini ochish va tushuntirib berish, ijtimoiy hayot maqsadlarini aniqlash va ijtimoiy munosabatlarni davlat va huquq vositasida tartibga solish mexanizmlarini yaratish, ularning rivojlanish istiqbollarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Fanning vazifasi – mamlakatda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati, demokratik davlatchilik va huquqiy tizim xususiyatlariga oid nazariy xulosalar o‘z ifodasini topishi barobarida, davlat va huquqning vujudga kelishi, mohiyati, mexanizmi, funksiyalari, shakllari, ularning jamiyatni modernizatsiyalashdagi roli jonli tarzda bayon etishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Huquq tizimi va huquqiy tizim**

Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari. Huquqiy tartibga solish predmeti va uslubi – huquqni tarmoq va institutlarga ajratish mezoni. O‘zbekiston Respublikasidagi asosiy huquq tarmoqlarining qisqacha tafsifi. Qonunchilik tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish tushunchasi va turlari. Normativ-huquqiy hujjatning tili va uslubi. Qonunlarni tizimlashtirishda yuridik texnikaning ahamiyati.

**2-mavzu. Huquqiy munosabatlar va ularning tasniflanishining huquqiy ahamiyati**

Huquqiy munosabatlarning tushunchasi, tuzilishi va turlari. Huquqiy munosabatlarning subyektlari. Huquqiy munosabatlarning obyekti. Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar. Yuridik faktlar.

**3-mavzu. Huquqni amalga oshirish**

Huquqni amalga oshirish tushunchasi va shakllari. Huquq normalarini qo‘llash jarayoni bosqichlari. Huquqni qo‘llash hujjatlari. Huquqdagi bo‘shliq. Huquq analogiyasi. Qonun analogiyasi.

**4-mavzu. Huquq normalarini sharxlash**

Huquq normalarini sharxlash tushunchasi. Rasmiy va norasmiy sharxlash. Huquq

| | |
|---|---|
| | normalarini sharxlash usullari. Huquq normalarini sharxlash hujjatlari.<br><br>**5-mavzu. Huquqiy tartibga solish mexanizmi**<br>Huquqiy tartibga solish tushunchasi. Huquqiy tartibga solish mexanizmi va uning tarkibiy qismlari. Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish. Huquqiy tartibga solishning ijtimoiy va ruhiy mexanizmi<br><br>**6-mavzu. Qonuniylik va huquqiy tartibot. Intizom**<br>Qonuniylik tushunchasi, mohiyati va vazifalari. Qonuniylik prinsiplari va kafolatlari. Qonuniylikni ta'minlashda Konstitutsiyaning ahamiyati . Huquqiy tartibot va jamoat tartiboti. Intizom.<br><br>**7-mavzu. Yuridik ixtilof (kolliziya)**<br>Yuridik ixtiloflarning tushunchasi, sabablari va oqibatlari. Yuridik ixtiloflarning turlari Yuridik ixtiloflarni hal etish tartibi va usullari.<br><br>**8-mavzu. Huquqiy xulq-atvor, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik**<br>Huquqiy xulq-atvor tushunchasi, belgilari va tasnifi. Huquqbuzarlik tushunchasi va mohiyati. Yuridik javobgarlik tushunchasi, belgilari va turlari. Aybsizlik prezumpsiyasi. Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar.<br><br>**9-mavzu. Hozirgi zamonning asosiy huquq oilalari. Dunyoning yuridik kartasi**<br>Dunyoning huquqiy xaritasi: asosiy tushunchalar. Dunyo huquqiy tizimlarining tasniflanishi. Hozirgi zamon huquq oilalarining umumiy tavsifi.<br><br>**10-mavzu. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat**<br>Fuqarolik jamiyati tushunchasi va mohiyati. Fuqarolik jamiyatining tarkibiy tuzilishi va asosiy prinsiplari. Davlat va fuqarolik jamiyati. Huquqiy davlat haqidagi ta'limot. O'zbekiston – huquqiy ijtimoiy davlat. Huquqiy davlat ta'limotining tarixiy-nazariy manbalari. Huquqiy davlat va uning belgilari.<br><br>**11-mavzu. Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim davlati va huquqi**<br>Qadimgi Misr va Bobilning davlati va huquqi. Qadimgi Xitoy va Hindiston davlati va huquqi. Qadimgi Yunon va Rim siyosiy tuzumining shakllanishi. Qadimgi Yunoniston va Rim huquqining rivojlanish xususiyatlari<br><br>**12-mavzu. Ilk davlatlarning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari. Arab xalifaligining davlati va huquqi**<br>O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlarning tashkil topishi xususiyatlari. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlarning kelib chiqishi shart-sharoitlari, sabablari va xususiyatlari. O'zbekistonda huquqning kelib chiqishi va manbalari. "Avesto"-qadimgi davrning asosiy huquq manbai. Qadimgi davrda mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi. Nikoh va oila huquq. |

| | |
|---|---|
| | Arab xalifaligining oliy, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari. Musulmon huquqiy tizimining xususiyatlari. IX–XIIIasrlarda Movarounnahrda davlatchilikning rivojlanishi. IX–XIII asrlarda O‘zbekiston hududidagi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi. Islom huquqning vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlari, islom huquqi manbalari. Shariat bo‘yicha mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi. Somoniylar davati va huquqi. G‘aznaviylar davlati va huquqi. Qoraxoniylar davlati va huquqi. Saljuqiylar davlati va huquqi. Xorazmshoxlar davlati va huquqi<br><br>**13-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davlati va huquqi**<br>XIV asrda Movorounnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishi. Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi. “Temur tuzuklari”da davlat huquqi masalalarning tartibga solinishi. Shayboniylar davlati va huquqi. Ashtarxoniylar davlati va huquqi.<br><br>**14-mavzu. O‘rta va yangi asrlarda yevropa mamlakatlari davlati va huquqi (Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniya). Amerika Qo‘shma Shtatlari davlati va huquqi**<br>O‘rta asr G‘arbiy Yevropa davlatchiligiga umumiy tavsif. O‘rta asrlarda Yevropa davlatlari huquqiy tizimining xususiyatlari.<br>AQSHning vujudga kelishi va uning mustaqillik Deklaratsiyasi. AQSH Konstitutsiyasi.<br><br>**15-mavzu. Rossiya podsholigi mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston hududida davlat va huquq.**<br>O‘rta Osiyoning Rossiya podsholigi tomonidan bosib olinishi va Turkiston O‘lkasining siyosiy tuzumi. Rossiya podsholigi protektorati sifatida Buxoro amirligi va Xiva xonligining siyosiy tuzumi. XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududida davlat va huquq. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi va uning siyosiy-huquqiy tizimi.<br><br>**III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>1. Huquqiy tizim va uning tarkibiy elementlari.<br>2. Huquq tizimi. O‘zbvekiston Respublikasi huquq tizimi. Huquqiy munosabatlar va ularning tasniflanishining huquqiy ahamiyati<br>3. Huquqni amalga oshirish.<br>4. Huquqni qo`llash.<br>5. Huquq normalarini sharxlash<br>6. Huquqiy tartibga solish mexanizmi.<br>7. Qonuniylik va huquqiy tartibot.<br>8. Intizomni tam’minlash. |

9. Yuridik ixtilof(kolliziya)
10. Kollizion holatlarni bartaraf etishning usullari.
11. Huquqiy xulq-atvor.
12. Huquqbuzarlik va uning turlari.
13. Yuridik javobgarlik va uning turlari.
14. Hozirgi zamonning asosiy huquq oilalari.
15. Dunyoning yuridik kartasi
16. Fuqarolik jamiyati va uning institutlari
17. Huquqiy davlat va uning zarurati.
18. Qadimgi Sharq davlati va huquqi.
19. Qadimgi Yunoniston davlati va huquqi
20. Qadimgi Rim davlati va huquqi
21. Ilk davlatlarning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari.
22. Arab xalifaligining davlati va huquqi
23. O'rta asr Osiyo davlatlari davlati va huquqi.
24. Amir Temur va Temuriylar davlati va huquqi
25. O'rta asrlarda Yevropa mamlakatlari davlati va huquqi.
26. Yangi asrlarda Yevropa mamlakatlari davlati va huquqi (Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniya).
27. Amerika Qo'shma Shtatlari davlati va huquqi
28. Rossiya podsholigi mustamlakachiligi davrida O'zbekiston hududida davlat va huquqi
29. O'zbekiston SSR davlat va huquqi
30. Mustaqil O'zbekiston davlat va huquqi

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy topshiriqlarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy va ikkita yakka tartibda bajariladigan topshiriq beriladi. Talaba berilgan topshiriqning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Eramizga qadar O'zbekiston hududida davlat va huquq
2. Eramizning boshlaridan VII asrga qadar bo'lgan davrda O'zbekiston hududida davlat va huquq
3. Qadimgi Misr va Bobilning davlati va huquqi
4. Qadimgi Xitoy va Hindiston davlati va huquqi

| | |
|---|---|
| | 5. Qadimgi Yunon va Rim siyosiy tuzumining shakllanishi<br>6. Qadimgi Yunoniston va Rim huquqining rivojlanish xususiyatlari<br>7. Arab xalifaligining oliy, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari<br>8. Musulmon huquqiy tizimining xususiyatlari<br>9. IX–XIII asrlarda Movarounnahrda davlatchilikning rivojlanishi<br>10. IX–XIII asrlarda O'zbekiston hududidagi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi<br>11. O'rta asr G'arbiy Yevropa davlatchiligiga umumiy tavsif<br>12. O'rta asrlarda Yevropa davlatlari huquqiy tizimining xususiyatlari<br>13. Chig'atoy ulusining tashkil topishi va uning ijtimoiy-siyosiy tuzumi<br>14. Chingizxon «Yasog'i» – asosiy huquq manbai<br>15. Movarounnahrda markazlashgan Amir Temur davlatining tashkil topishi va uning davlat boshqaruv apparati<br>16. «Temur tuzuklari» – muhim tarixiy-huquqiy manba<br>17. Shayboniylar davlati tuzumi<br>18. Mustaqil o'zbek xonliklarining vujudga kelishi va ularning davlat tuzumi<br>19. Yangi davr Buyuk Britaniya davlati va huquqi<br>20. Yangi davr Fransiya davlati va huquqi<br>21. Yangi davr Germaniya davlati va huquqi<br>22. AQSH davlati va huquqi<br>23. O'rta Osiyoning Rossiya podsholigi tomonidan bosib olinishi va Turkiston o'lkasining siyosiy tuzumi<br>24. Rossiya podsholigi protektorati sifatida Buxoro amirligi va Xiva xonligining siyosiy tuzumi<br>25. XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududida davlat va huquq<br>26. O'zbekiston SSRning tashkil topishi va uning siyosiy-huquqiy tizimi<br>27. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati organlari tizimi<br>28. O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimining shakllanishi<br>29. Huquqiy davlat nazariyasining tarixiy manbalari<br>30. «Huquqiy davlat» tushunchasi va mohiyatiga oid fikrlarni tahlil qilish<br>31. Huquqiy davlatning asosiy belgilari va xususiyatlari<br>32. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va mohiyatiga oid fikrlarni tahlil qilish<br>33. Fuqarolik jamiyatining tuzilishi va asosiy prinsiplarini tahlil qilish<br>34. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi |
| 3. | **VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>• davlat va huquq, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'ladi;<br>• davlatning amal qilishi va uning tuzilmaviy organlari; davlat va huquqning tarixiy va hozirgi zamon tushunchasi, huquq shakllari, huquq ijodkorligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik, ularning turlari; qonuniylik; davlat mexanizmini amalga oshirish kabi masalalarni, davlat va huquq tarixini bilib, bu bilimidan lozim darajada foydalana oladi;<br>• talaba normativ-huquqiy aktlarni sharxlash va qo`llash, qabul qilinayotgan |

| | |
|---|---|
| | normativ-huquqiy hujjatlarni Konstitutsiyaga va xalqaro-huquqiy standartlarga mos kelishi, davlat va huquq tarixidan olgan bilimlarini tarixiy merosni hurmatlash, hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, huquqiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.<br>Kurs natijasiga ko'ra ega bo'ladigan kompetensiyalar (KK):<br>• Kelajakdagi kasbiy faoliyatda milliy g'oya, ma'naviyat, tarbiya va huquq ta'limi tizimidagi fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni namoyon etadi.(KK-1);<br>• ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadi (KK-4). |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, mustaqil ta'lim, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida og'zaki, yozma yoki test topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. – 248 bet.<br>2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b.<br>3. Muhamedov H.M. Huquq tarixi: o'quv qo'llanma. Toshkent: TDYU, 2023. – 784 bet.<br>4. Мухамедов Х.М. Энг янги давр давлати ва ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – 85 бет.<br><br>**XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Davlat va huquq tarixi: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik // H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 345 b.<br>2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррир М.Ахмедшаева. Дарслик. –Тошкент: ТДЮУ, 2019. – 240 б.<br>3. Muhamedov H.M. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi(Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. III qism. Oliy o'quv yurtlarining yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun darslik / Mas'ul muharrir: O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi,yuridik fanlar doktori, professor A.X.Saidov. – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018. – 341 bet. |

| | |
|---|---|
| | 4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. –Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 536 bet.<br>5. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir y.f.d., professor H.Boboyev. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2021. – 232 b.<br>**Axborot manbalari**<br>**http://www.edu.uz** – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti<br>**http:www.uzedu.uz** – O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy sayti<br>**http://www.gov.uz** – O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.<br>**www.natlib.uz** – (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>**www.ziyonet.uz** – Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal<br>**www.pedagog.uz**<br>**www.Tsul.uz** – Toshkent davlat yuridik universiteti axborot-resurs markazi<br>**www.lex.uz** – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi<br>**www.cspi.uz** – CHDPU rasmiy sayti |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "_______" _________________dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>**O.Berkinov** – CHDPU, "Milliy g'oya" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**M.X.Baratov** – TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori.<br>**R.A.Ikramov** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, y.f.n. |